



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 25-fevral, № 39 (8934)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — O'MON: KO'P QIRRALI HAMKORLIK YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-fevral kuni O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaidiyini qabul qildi.



Suhbat avvalida vazir davlatimiz rahbariga O'mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomi va maktubini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalardagi sheriklik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

Idoralararo va ishbilarmonlik aloqalari faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar soni ortmoqda, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi biznes tadbirlari muntazam o'tkazilmoqda.

O'zbekiston — O'mon investitsiya kompaniyasi portfelini yangi kooperatsiya loyihalari hisobiga kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yil aprel oyida Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi va qo'shma biznes forumi o'tkaziladi.

Bundan tashqari, parlamentlararo aloqalarni, madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, joriy yil may oyida Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz davlatlari" muloqotining ikkinchi sammitiga tayyorgarlik yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

POKISTON BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 25-26-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Bo'lajak oliy darajadagi muzokaralar kun tartibidan O'zbekiston — Pokiston strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari o'rin olgan.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, transport bog'liqligini kuchaytirish va tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish, yengil va charm sanoati, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, elektrotexnika va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish

borasidagi qo'shma rejalar diqqat markazida bo'ladi.

Madaniy-gumanitar va turizm aloqalarini faollashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Sammit yakunida Qo'shma deklaratsiya va ikki tomonlama qator hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirildi.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida yetakchilar O'zbekiston — Pokiston Qo'shma biznes forumida ham ishtirok etadilar.

O'zA.

O'zbekiston — Pokiston:

JANUBIY VA MARKAZIY OSIYONI BIRLASHTIRUVCHI ISHONCHLI SHERIK

O'zbekiston va Pokiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon o'tgan 33 yil mobaynida siyosiy muloqot va ko'plab istiqbolli sohalarda hamkorlik borasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. E'tiborlisi, Pokistonning mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar, gumanitar, fan, ta'lim, yuqori texnologiyalar va yoshlarga doir siyosat sohasidagi tashabbuslari va islohotlari mamlakatimizning uchinchi Rennessans poydevorini barpo etish borasidagi maqsadlariga har jihatdan hamohangdir.

Ma'lumki, Pokiston o'zining "Markaziy Osiyoga nigoh" siyosatiga muvofiq Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini doimiy mustahkamlab borishni maqsad qilgan. Ayniqsa, O'zbekiston bilan oliy darajadagi muloqotlar doimiy tus olgan. Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif boshchiligidagi delegatsiyaning 25-26-fevral kunlari kutilayotgan O'zbekistonga tashrif ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik an'analarning davomi sifatida mintaqaviy o'zaro bog'liqlikdagi sa'y-harakatlarni yangi, yanada yuqori bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Shahboz Sharif 2022-yil sentabr oyida O'zbekistonga tashrif buyurib, Samarqandda bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida ishtirok etgandi. Bu galgi nufuzli tashrifida unga Pokiston tashqi ishlar vaziri Muhammad Is'hoq Dar, shuningdek, qator vazirlar va biznes vakillari hamrohlik qilayotgani ikki mamlakat munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradigan muhim masalalar muhokama qilinishi va keng qamrovli bitimlar imzolanishidan darakdir.



BOJXONA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-fevral kuni bojxona faoliyatini takomillashtirish va raqamlashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yaxshilash maqsadida bu sohada ko'p ishlar qilindi. O'nga yaqin davlatlar bilan oldindan axborot almashinuvni yo'lga qo'yildi, bojxona rasmiylashtiruv va ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari tashkil etildi. 4 ta yirik bojxona postida terminallar qurildi, 20 dan ziyodi yangi uskunalar bilan ta'minlandi. Tadbirkorlar uchun 35 ta axborot tizimi joriy qilinib, eksport jarayonlari 9 bosqichdan 3 bosqichga tushdi.

Bularning natijasida chegara orqali transportlar harakati 8 barobar ko'payib, qariyb 5 milliard taga yetdi. Byudjetga tushumlar 9 barobar o'sib, o'tgan

yili 63 trillion so'mdan oshdi. Yuklarni rasmiylashtirish vaqti importda 3 soat, eksportda 20 daqiqagacha qisqardi.

Umuman, tizim soddalashtirilishi orqali 6 mingga yaqin eksportyorlar hamda 20 mingga yaqin importyorlarning sarf-xarajati va vaqti tejalgan. Xalqaro logistika reytingida bojxona ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 140-o'ringdan 74-o'ringa ko'tarilgan.

Lekin hali raqamlashtirish, jarayonni tezlashtirish va qulaylashtirish bo'yicha vazifalar ko'p. Taqdimotda shu boradagi chora-tadbirlar ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda bojxona hududida qayta ishlash turlari

kengaytirilgani samarasida bu tarzda eksport qilingan tovarlar ulushi o'tgan yili 1 milliard dollardan oshgan. Bu tizimni yanada soddalashtirib, shu yilning o'zida eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mumkin.

Qo'shni davlatlar bilan savdo va turizm aloqalari kengayib borayotgani tufayli chegaradagi yo'lovchilar va avtotransport oqimi kamida 2 karra oshishi kutilmoqda. Bu qo'shimcha infratuzilma yaratib, postlarda o'tkazuvchanlikni oshirishni talab qiladi.

Jumladan, xalqaro qatnovlarni ko'paytirish maqsadida avtobuslarda ham aviareyslardagidek yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlarni oldindan

olish tizimi ko'zda tutilmoqda. Natijada avtobuslar chegaradan soddalashgan tartibda o'tkazilib, rasmiylashtirish vaqti 2 barobar qisqaradi. Shuningdek, eng yirik bojxona postlarida yengil avtomobil va avtobuslar uchun "qizil" va "yashil" yo'laklar joriy qilish taklif etilmoqda.

Bojxona kuzatuvda sun'iy intellektni keng qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda Jahon banki mutaxassislari ko'magida "xavf tizimi" takomillashtiriladi. Bu tizim moliyaviy barqarorlik, savdo tarixi kabi 122 ta mezon bo'yicha tadbirkorlarning ishonchlilik darajasini baholaydi. Shuningdek,

Rentgen tasvirlari sun'iy intellekt asosida tahlil qilinib, xavfli tovarlar avtomatik aniqlanadi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, sohada xalqimiz uchun yengilliklar yaratish, tadbirkorlar va turistlariga tezkor xizmat ko'rsatish zarurligini ta'kidladi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bojxona qonunchiligini bunga to'liq muvofiqlashtirish vazifasi qo'yildi.

Bojxona instituti salohiyatini oshirish, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, tahlika-tahlil bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, dual ta'limni kengaytirib, amaliyotini yaxshilash muhimligi qayd etildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

22-fevral kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisoni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi. Yalpi majlisning uchinchi ish kuni senatorlar tomonidan dastlab "O'zbekiston

Respublikasi Hukumati bilan Qatar Davlati Hukumati o'rtasida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi Bitimni (Toshkent shahri, 2024-yil 15-aprel) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunni ko'rib chiqishdan boshlandi.

Ta'kidlanganidek, mazkur Bitimda ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatli siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan asosiy ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda.



ARMIYA VA TARBIYA

Sirojiddin SAYYID, Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston xalq shoiri

Yangi O'zbekistonning milliy armiyasida Shoirilar ham safdoshdir ta'lim-tarbiyasida.

Ya'ni har bir ijodkor, har yozuvchi yo adib — Sardor bo'lmog'i kerak bilimdon va botartib.

Har jangovar askarning biz ham teng-to'shlarimiz, Qalam-la qurollangan Qurolli Kuchlarimiz.

Kim Temurxon boboning qudratini bilmagan? Bobo orzu qilgan, lek xayoliga kelmagani:

Kimki shubha qilgandir dovruq'i, kamoliga — "Temurbeklar maktabi" javobdir savoliga.

Inchunin har bir zobit, har sipoh, har bayroqdor, Kechgan shonli janglardan bo'lmog'i shart xabardor.

Millat xoki poylarin tavof qilsa arzaydi, "Zafamoma" yaratmish mavlono Ali Yazdiy.

Davlati poydorlikning mangu guvohnomasi — "Zafamoma" emas, bu — buyuk xalq shohnomasi.

O'pgil, ey Yevropa sen, barmoq, uzuklaridan, Hanuz saboq olgaysan "Temur tuzuklari" dan.

Butun olam ahliga harbiy nomamdir mening, Jangnomam, kurashnomam — "Boburnoma"mdir mening.

Vatan — jon va tandadir, jon Vatan — jon va tandir, Vatanparvar insonlar jon chekib, jon tikkandir.

"Yolcu Vatan uzra to joni bor, — deb aytgan, Kishi harib etar toki imkoni bor", deb aytgan,

Navoiy bobomizdan timsol keltirsam agar, Necha ming ko'ngillarni uyg'otmog'i muqarrar.

Har shoir, har askarga qat'iyat, shiddat kerak, Azmu shijoat kerak, ilmu ma'rifat kerak.

Bunda har on asqatar aqlu fahmu farosat, Dunyoviy bilimlar ham matonat va sadoqat.

Bu qanday dilbar diyoy, dil diyoy, dildor diyoy, Askarlari ham bedor, shoirilari ham bedor.

Ammo olam avzoyi — kecha-kunduz talotum, Boisin aytolmagay biror Alp yo Aflo tun.

Fitrat domla aytganday: Dunyo — kurash maydoni, Bir tomoni toshqinlar, yong'indir bir tomoni.

Dunyoning dunyolikka qolmaganday holi ham, Qirg'inbarot urushlar davom etar hali ham.

O'ttiz yetti million xalq, o'ttiz yetti million qalb, Qalbin, sen ham shu safda hushyor bo'lgil, uyg'on, qalq!

Toki xavfu xatar bor, shudir temir tarbiya: Har birimiz — posbonimiz, har birimiz — armiya.

Xalqu Vatan tashvishi — barchaning teng ishidir, Bugun har bezovta qalb — xavfsizlik kengashidir.

Shu boisdan tinchligu tinch osmoningga sharaf, Biz egulik tarafimiz, bizlar xalqimiz taraf.

Mening ham ko'ksim to'la g'urur bilan iftixor: O'zbek armiyasi bor! O'zbek xalqi ham poydor.

O'yilasam shul Vatanni — jimirlar ko'ngillarim, Ey, mening sarbozlarim! Mening generallarim!

Shonli, shavkatli diyoy, shu safda men ham borman, Ne baxtkim, saodatu baxtingga daxldorman.

Dunyoda Vatan tanho, xalqu millat yagona, Millat bedor bo'lsa qar, tinch bo'lgaydir zamon.

O'ttiz yetti million xalq, yana shuncha dil, yurak, Hushyor yashamoq kerak! Hushyor yashamoq kerak!

Milyon-milyon beshikda — chaqaloqlar lashkari, Tamshamb o'smoqdadir — kelajakning askari.

Lashkar bexatar bo'lmas, aytib ketgan bobolar, Onalar duo aylar, duo aylar momolar.

Ona yurt, ota makon, men ham bir askaringman, Uyg'oq qalamim birlan xizmatkor navkaringman.

Angladimki: dunyoda na jon, na tan abadiy, Faqat Vatan abadiy, faqat Vatan abadiy.

Mening ham har bir she'rim — hayotu mamotimdir, Oliy Bosh Qo'mondonga ichgan qasamyodimdir.

Komissiya yig'ilishi

FUQAROLIK JAMIYATI
TARAQQIYOTIGA
QARATILGAN DASTURLAR

Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ijrosini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2024-yil 26-avgustdagi Farmoni bilan Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi qayta tashkil etilgandi.

Ushbu Farmon bilan jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi va jamoat fondi oldiga fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan rivojlantirish maqsadida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar uchun 2024-yilning oktabrida bo'lib o'tgan saylovlardan keyin deputatlar va Senat a'zolaridan shakllantirilgan yangi tarkibdagi Parlament komissiyasining dastlabki yig'ilishida fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning shaffof va sog'lom raqobat tamoyiliga asoslangan yangi tizimi yaratilgani ta'kidlandi.

Davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish, joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro'yogba chiqarishga ko'maklashish, davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha sohasida ta'sirchan jamoatchilik nazorati olib borishni rag'batlantirish kabilor fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Yig'ilishda jamoat fondining 2024-yildagi faoliyati tahlil etilib, 2025-yildagi ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi. Joriy yilda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etilmoqda.

Parlament komissiyasi a'zolari va jamoat fondi vakillaridan iborat ishchi guruhning huddudlarga bo'lib, muloqotlar uyushtirgan holda ehtiyojlarni, ijtimoiy soha va mahallalar tizimlaridagi muammolarni o'rganishi hamda yechimlar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishi, tahlillar natijasiga ko'ra, har bir hududga mo'ljallangan, muammolarning manzilli va samarali yechimiga qaratilgan tanlovlarni e'lon qilish rejalashtirilmoqda.

Ochiqlik va voqeliklarning tezkorligini ta'minlash maqsadida davlat ijtimoiy buyurtmasi va grantlarini ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlar "ngo.gov.uz" yagona elektron platformasida amalga oshiriladi. Shu orqali nomzod tashkilotning loyihamo topirish, Parlament komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish va baholash jarayonlarini kuzatib borish, muhokamalarda bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

2024-yil 1-oktabrdan 2027-yilning 1-oktabriga qadar jamoat fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar doirasida mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan soliq stavkalar 50 foizga, 2025-yil 1-yanvardan qonunlarning bo'lgan shaxslar, faxriylar, xotin-qizlar hamda bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan davlat bojlari miqdori ikki baravarga kamaytirildi. Jamoat fondining Shoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo'limlari ochildi. "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofoti, an'anaviy "Oltin qalam" tanlovida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yoritish yo'nalishida yangi nominatsiya tashkil etilmoqda.

Yig'ilish yakunida Parlament komissiyasi tomonidan O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining atrof-muhitni muhofaza etish, aholi sog'lig'ini saqlash, bandligini ta'minlash, ta'lim va boshqa sohalaridagi muhim tashabbus hamda loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 2025-yil uchun qator dasturlar qabul qilindi.

Parlament diplomatiyasi

ANIQ QADAMLAR
HAMDA TASHABBUSLAR
E'TIROFI

Oliy Majlis Senati a'zosi Gulnora Ma'rufova mamlakatimiz parlamenti delegatsiyasi tarkibida YXHT Parlament Assambleyasining Vena shahri (Avstriya)da bo'lib o'tgan 24-qishki sessiyasida ishtirok etdi.

Tadbirda 51 davlatdan 240 dan ortiq parlament a'zolari qatnashdi. Assambleya yig'ilishlarida asosiy e'tibor parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, ekologiya, energetika va barqaror rivojlanish masalalariga qaratildi.

O'zbekiston delegatsiyasi mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni faol rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilish bo'yicha strategik istiqbolarga bag'ishlangan ma'ruza bilan so'zga chiqdi. Ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq qadamlar hamda tashabbuslar e'tirof etildi.

Sessiyaning ikkinchi kuni Oliy Majlis delegatsiyasi a'zolarining chiqishlarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan parlament saylovi mamlakatning siyosiy rivojlanishida muhim qadam bo'lgani ta'kidlandi. Xalqaro tashkilotlarning, jumladan, YXHT Parlament Assambleyasi delegatsiyasining ushbu siyosiy tadbirda xalqaro kuzatuvchi bo'lib ishtirok etgani saylovning muhimligi va shaffofligi ko'rsatildi.

Qishki sessiya chog'ida Oliy Majlis delegatsiyasi a'zolari Markaziy Osiyo mamlakatlari delegatsiyalari va YXHTning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili bilan birga davra suhbatida ishtirok etdi. Shuningdek, qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

BOLALAR MANFAATLARI MUHOFAZASI VA
HUQUQIY NORMALAR KAFOLATI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2024-yildagi bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi hamda quy palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.



Jumladan, Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimizning Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Sabohning taklifiga deputatlar tomonidan berilgan takliflar chuqur tahlil qilindi, ular asosida binoan shu yil 17-18-fevral kunlari ushbu mamlakatga rasmiy tashrifning ahamiyati muhokama qilindi.

Fraksiya a'zolari davlatimiz rahbarining Kuvaytga rasmiy tashrif ikki davlat xalqlari farovonligini oshirish, mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini, nafaqat ikki tomonlama munosabatlarga, balki O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarning muhim ishtirokchisi sifatidagi mavqeiini mustahkamlashini ta'kidlandi.

Mazkur tashrif va uning doirasida imzolangan hujjatlar o'zaro ishonch va anglashuv poydevoriga asoslangan ikki tomonlama hamkorlikda yangi sahifa ochishga zamin yaratishi qayd etilib, bu borada partiya va uning fraksiyasi oldida turagan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda "O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda yerga oid munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish hamda ularni bozor aktiviga aylantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmogda.

Ushbu qonun loyihasi bilan esa qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini foydalanish turiga qarab bo'lish bo'yicha aniq normalar kiritilmogda.

Fraksiya a'zosi Muqaddas Ahmedova qonun loyihasining mohiyatiga to'xtalib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan takliflar chuqur tahlil qilindi, ular asosida hujjat matni har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilib, maromiga yetkazilganini qayd etdi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2024-yildagi bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, 2024-yilda Bolalar ombudsmani nomiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan jami 1 064 ta murojaat kelib tushgan.

Shuningdek, hisobot yilida Bola huquqlari bo'yicha vakilning 35 ta shaxsiy qabuli tashkil etilgan bo'lib, ularda jismoniy va yuridik shaxslardan 160 ta murojaat tushgan. Ular tahlili va monitoringi asosida davlat organlari tomonidan bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yilgani yuzasidan ta'sir hujjatlari orqali munosabat bildirilib, Bolalar ombudsmani tomonidan 9 ta ogohlantirish, 3 ta taqdimnoma, 18 ta xulosa va 6 ta sud hujjati ustidan protest keltirish to'g'risida litimsonoma kiritilgan.

Fraksiya a'zolari Bolalar ombudsmani tomonidan o'tgan yilda muayyan ishlar amalga oshirilganini

qayd etib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berdi.

Yig'ilishda homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish, sohadagi muammolar, xususan, ehtiyojmand aholi qatlamlariga yordam ko'rsatishda fribgarlik va boshqa qoidabuzarlik holatlarining oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu qonun loyihasida homiylik to'g'risidagi tartib va qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilanyapti.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarini savollarga tutdi. Deputatlar loyihani ishlab chiqishda xorijiy tajriba o'rganilgani bilan ham qiziqishdi.

Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil tushuntirishlar berib, loyihani tayyorlashda bir qator davlatlarning bu sohadagi tajribasi o'rnatilganini qayd etdi. Savol-javoblar



va muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2024-yilda bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi holati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi. Bu Bolalar ombudsmanining Oliy Majlis palatalariga taqdim qilgan birinchi ma'ruzasi hisoblanadi.

Bola huquqlari bo'yicha vakilning fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning buzilgan huquqlarini tiklashga doir faoliyati "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola

huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha vakil bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish, bolaning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan norma ijodkorligi faoliyatiga o'z hissasini qo'shmoqda. Xususan, 2024-yilda vakil tomonidan 46 ta qonunchilik hujjati loyihasi ko'rib chiqilib, bola huquqlari sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar yuborilgan.

Deputatlar so'nggi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat bilan bola huquqlari sohasida ham o'zining samarali ifodasini topayotganini alohida qayd etishdi. Shundan kelib chiqib, Bolalar ombudsmanining 2024-yildagi faoliyati haqidagi ma'ruzasi bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi tazyiq yoki zo'rovonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan davlat himoyasini ta'minlash amaliyotini kengaytirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, profilaktik hisobga qo'yiladigan shaxslar doirasi amaldagi 6 toifadan 3 toifaga, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun profilaktik hisobga olinayotgan moddalar 28 tadan 12 taga kamaytirilib, hozirda zaruri hisoblangan qo'shimcha 2 ta holat bilan to'ldirilmoqda.

Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qililib, undagi normalarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari

surildi. Muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda, shuningdek, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ning ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Fraksiya a'zolari tomonidan Bolalar ombudsmanining ma'ruzasi qizg'in muhokama qilindi, uning faoliyatini yanada takomillashtirish, bolalarning hujjati loyihasi ko'rib chiqilib, bola huquqlari sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar yuborilgan.

Shuningdek, Bolalar ombudsmani o'zining keyingi faoliyatida aholining huquqiy savodxonligini oshirishga doir mexanizmlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishi lozimligi qayd etildi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini foydalanish turiga qarab 2 guruhga, ya'ni qishloq xo'jaligi uchastkalarini va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerga bo'lish bo'yicha aniq normalar kiritilmogda.

Shuningdek, sug'oriladigan yerlarni qat'iy muhofaza qilish, bunday yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish masalasining faqatgina sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti va tuproq sifati bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar yuz bergan taqdirda ko'rib chiqilishi yuzasidan huquqiy normalar belgilanyapti. Bundan tashqari, zaxira fondi tarkibidagi yer uchastkalarini hamda yer uchastkasi bo'lgan huquq bekor qilinishi munosabati bilan tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati organlari tasarrufiga qaytgan bo'sh turgan yer uchastkalarini o'rtasidagi farqni aniq belgilab qo'yish nazarda tutilmoqda.

Yig'ilishda fraksiya a'zosi Navroz Yusupov tomonidan qonun loyihasining qurub qilinishi va munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yer uchastkalarini foydalanish shartlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi qayd etildi. Muhokama yakunida fraksiya a'zolari tomonidan qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishlarda fraksiyalar faoliyatiga oid boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

"QUYOSHLI XONADON"
ENERGIYA TAQDIM ETADI

Mamlakatimizda yildan-yilga elektr energiyasiga bo'lgan talab oshib bormogda va bunga tabiiy jarayon sifatida qarash lozim. Shu bois "yashil" energetikani jadal rivojlantirish bo'yicha muhim dastur qabul qilingan bo'lib, har yili 2 gVtga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. 2024-yil yakunida tarmoqqa qo'shimcha 6 gVt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 MVtli energiya saqlash tizimlari ulandi.

2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattlik energiya saqlash tizimlarini yaratish rejalashtirilgan.

Fikr

Bugungi kunda ishga tushirilgan loyihalarning iqtisodiy samarasini xalqimiz birdek his etib turibdi. Chunki amalga oshirilgan va bajarilishi rejalashtirilayotgan ishlar natijasida o'n minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi, energetika infratuzilimasi rivojlanadi, texnologik va ishbilanmonlik aloqalari kengayadi. Eng muhimi, aholi turmush darajasi oshadi. Yaqin o'tmishimizda yurtdoshlarimizning elektr energiyasi tizimidagi nosozliklar tufayli undan foydalana olmay ko'p qiyinchiliklarga uchragan kunlar ham ko'p bo'lgan. Ayniqsa, elektr quvvatining uzilishi sabab katta-kichik tadbirkorlarning ish samaradorligi keskin tushib ketishi natijasida juda ko'p tadbirkorlar inqirozga uchraganing guvohi bo'lganmiz. Bugun esa energiya saqlash tizimlarining rivojlanishi va elektr tarmoq'idagi uzilishlarning oldini olish natijasida aholi turmush tarzi yaxshilanib, tadbirkorlikka yanada keng imkoniyatlar yaratilayotgani ham bor haqiqat.

Bu – 2030-yilga borib, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to'g'ri keladi, degani. Buning natijasida yiliga qariyb 15 mlrd. kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishilib, atmosferaga 21 mln. tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olindi.

Olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda 10 ta viloyatda umumiy quvvati 3 467 megavatt bo'lgan 14 ta quyosh, 3 ta shamol elektr stansiyasi "yashil" energiya

ishlab chiqarmogda. Bundan tashqari, umumiy quvvati 300 megavatt bo'lgan 2 ta energiya saqlash tizimi ishga tushirilgan. Ushbu elektr energiyasini saqlash tizimlaridan iste'molning oshgan vaqtlarida tarmoqni barqarorlashtirish va qo'shimcha zaxira quvvatlarini yaratish uchun foydalaniladi.

Xususan, Farg'ona viloyatida xorijiy sarmoyalar jalb etilib, energiya saqlash tizimlaridan foydalangan holda yangi loyihalar ro'yogba chiqarilishi natijasida ushbu hududda "Energy China's" 150 MVt/300 MVt/soat loyihasi uchun akkumulyatorli quvvat saqlash tizimi (BESS)ni o'rnatish muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu esa mamlakatimizni yanada barqaror va xavfsiz energetika kelajagiga yaqinlashtirdi.

"BESS"ning muvaffaqiyatli o'rnatilishi tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun barcha manfaatdor tomonning resurslarini muvofiqlashtirish va safarbar etish natijasidir. Bu O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishdagi texnik yutuqdir.

Umumiy qiymati qariyb 140 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan loyiha – "CEEC" birinchi xorijiy energiya saqlash korxonasi bo'ldi va 2024-yil dekabr oyida ishga tushirildi. Natijada 300 dan ortiq ish o'rinlari yaratildi, bu ham martaqada iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Stansiyasi yiliga 2,19 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

Mazkur loyiha elektr energiyasi yetishmovchiligini bartaraf etish va mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tishini qo'llab-quvvatlash uchun amalga

oshirilayotgan O'zbekistonning keng ko'lami energetika strategiyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Loyiha O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi mustahkam hamkorlik ramzi bo'lib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishi, shubhasiz, yanada yaqin hamkorlikka yo'l ochadi.

Bugungi kunda aholi xonadonlariga quyosh panellari o'rnatish va o'z ehtiyojlaridan ortgan elektr energiyasini davlatga sotish uchun ham sharoitlar yaratilgan. Birgina 2024-yilning o'zida quyosh panellari o'rnatgan fuqarolarga 10 mlrd. so'mdan ziyod subsidiya berildi va bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. 2021-yildan boshlab O'zbekiston tarixida birinchi marta aholi xonadonida o'rnatilgan quyosh panellari yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat tomonidan sotib olish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. "Quyoshli xonadon" dasturi orqali 2024-yilning oktabr oyida xonadoniga quyosh paneli o'rnatgan jami 6 536 nafar fuqaroga davlatga sotgan 10 mln. 563 ming 890 kVt-soat elektr energiyasi uchun jami 10 mlrd. 563 mln. so'm to'lab berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur subsidiya mablag'lari soliq organlari tomonidan har oyda "Soliq" mobil ilovasi orqali hisobot oydin keyingi oyingning 25 sanasiga qadar (masalan, oktabr oyi uchun belgilangan subsidiya mablag'lari 25-noyabrgacha) fuqarolarning bank plastik kartalariga o'tkazib beriladi.

Jismoniy shaxslarning quyosh panellari va quyosh suv isitish quurilmalarini onlayn sotib olishlari uchun platforma – "energymarket.uz" ishga tushirilgan.

Umuman, mamlakatimizning "yashil" energetikaga jadallik bilan o'tishi tabiiy resurslardan unumli foydalanish va aholining energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga xizmat qiladi.

Gulchehra JO'RAYEVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
deputati.

Yoshlarga oid
davlat siyosati
yuqori baholandi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi raisi Sh. Joldasovaning BMTning Yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish departamenti rahbari S. Balakrishnan boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot

Muloqot davomida mehmonga davlatimiz rahbari boshchiligidagi yurimida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati, shuningdek, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti va Yoshlar komissiyasi faoliyati haqida ma'lumot berildi.

O'z navbatida, S. Balakrishnan Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda yoshlar siyosatini yuritish borasida amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etib, qisqa vaqt ichida muhim loyihalar bajarilgani, davlat va yoshlar o'rtasidagi munosabatlarning hamohangligi xorijiy mamlakatlarga o'rnak bo'lishini alohida urg'uladi.

Joriy yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Yoshlar sammitida yoshlarga oid masalalar, xususan, ularning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini mustahkamlash, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda navqiron avlod vakillarining hissasini oshirish kabi mavzular muhokama markazida o'tilishi aytili. Shuningdek, O'zbekistonning Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi va Yoshlar parlamentiga oid tajribasini boshqa davlatlarga taqib etish yuzasidan fikr bildirilib, mazkur sammitga mamlakatimiz vakillari ham taklif qilindi.

Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuv yakunida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Yoshlar parlamenti bilan bevosita va xalqaro tashkilotlar doirasida faol hamkorlik qilishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

